

## TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR FAOLIYATINING SOLIQ MILLIY BAZASI YEMIRILISHIDA TUTGAN ROLINI BAHOLASH

**G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li | [shohruhjohn2000@gmail.com](mailto:shohruhjohn2000@gmail.com)**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Transmilliy korporatsiyalar faoliyati natijasida mamlakatlarning milliy soliq bazalari yemirilishi bilan bog'liq holat tahlil qilingan. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati, ularni tashkil etilishidan maqsad qanday ekanligi o'rganilgan. Bu bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilinib, olimlarning fikrlari o'zaro qiyoslangan. Shuningdek, soliq bilan bog'liq munosabatlarning o'rganilishi naqadar zarurligi yoritib berilib, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirlorlarni soliqqa tortish bilan bog'liq holat birmuncha tahlil qilingan. Bu bo'yicha statistik ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliqdan qochish, soliq yukini minimallashtirish, transmilliy korporatsiya, soliq solish obyekti, soliq bazasi, foyda solig'i, soliq stavkasi, "tax heaven" mamlakatlari, ofshor zonalar.

---

## ASSESSMENT OF THE ROLE OF THE ACTIVITY OF TRANSNATIONAL CORPORATIONS IN THE CORROSION OF THE NATIONAL TAX BASE

**Gulomov Shokhrukh Islomjon ogli**

*Master's degree student of Tashkent State University of Law*

**Abstract.** This article analyzes the situation related to the erosion of the national tax bases of countries as a result of the activities of transnational corporations. The activities of transnational corporations and the purpose of their establishment have been studied. In this regard, foreign experiences were analyzed and the opinions of scientists were compared. Also, it was explained how necessary it is to study tax-related relations, and the situation related to the taxation of businessmen in our country today was somewhat analyzed. Statistics on this are given.

**Key words:** tax, tax avoidance, tax burden minimization, transnational corporation, object of taxation, tax base, profit tax, tax rate, "tax heaven" countries, offshore zones.

---

## ОЦЕНКА РОЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ КОРПОРАЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ

Гуломов Шохрух Исломжон угли

*Магистрант Ташкентского государственного юридического университета*

**Аннотация.** В данной статье анализируется ситуация, связанная с размыванием национальной налоговой базы стран в результате деятельности транснациональных корпораций. Изучена деятельность транснациональных корпораций и цели их создания. В связи с этим был проанализирован зарубежный опыт и сопоставлены мнения ученых. Также было разъяснено, насколько необходимо изучать налоговые отношения, а также была несколько проанализирована ситуация, связанная с налогообложением предпринимателей в нашей стране сегодня. Приводится статистика по этому поводу.

**Ключевые слова:** налог, уклонение от уплаты налогов, минимизация налогового бремени, транснациональная корпорация, объект налогообложения, налоговая база, налог на прибыль, налоговая ставка, страны «налогового рая», оффшорные зоны.

**Kirish.** Amerika Qo'shma Shtatlarining buyuk davlat arbobi Benjamin Franklin o'z vaqtida: "O'limdan va soliqdan qochib bo'lmaydi" – deb aytgan edi. Darhaqiqat, davlatlar borki, o'zini soliqlar bilan tutib turadi. Soliqsiz davlat qonsiz tanaga o'xshatiladi. Shu boisdan tarixdan o'z g'aznasini boyitishni istagan davlatlar yoki boshqa davlatlarga urushlar ochgan, yoki bo'lmasa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq yukini oshirib, ga'znani to'ldirgan. Tabiiyki, bunday islohotlar odamlarga yoqmaydi. Natijada esa soliqdan qochishga yoki uni chetlab o'tishga nisbatan harakatlar amalga oshirilaveradi.

Tariximizdan bir misol keltiradigan bo'lsak, o'zining katta g'ildiraklari bilan mashhur Qo'qon aravalari butun dunyoni zabt etgan. Avvalboshda u kichkina g'ildirakli arava sifatida paydo bo'lgan. Uning g'ildiraklari esa keyinchalik bir amaliy maqsad bilan kattalashtirilgan. Ya'ni, XVIII-asrda Qo'qon xonligida "ko'prik solig'i" deb nomlangan soliq joriy etiladi. Unga ko'ra, xonlikdagi daryo, soylar ustidan qurilgan ko'priidan o'tish uchun soliq solingan. Bu esa arava egalarini soydan kechib o'tishga majbur qilgan. Kichik g'ildirakli aravalari suvlarda tiqilib qolavergach, aravaning g'ildiraklari kattalashtirilgan. Natijada, katta g'ildiraklar soliqni chetlab o'tishning vositasiga aylangan.

Soliq bilan bog'liq munosabatlarni o'rganishning dolzarbligi hech qachon kamaymagan. Chunki, insonlar tomonidan, avvalo, o'z ehtiyojlarini qondirish, qolaversa, foyda topish, boylik orttirish maqsadida har xil qiymatlar yaratilaveradi, ular esa ehtiyojlarga ko'ra, pul orqali sotib olinib jamiyat a'zolariga taqsimlanadi. Pul bor joyda, yaratilgan qiymat bor joyda esa soliq bo'ladi. Bu soliqlar bilan esa mamlakatlar qaddini tik tutib turadi.

Demak, soliqning ahamiyati davlatning faoliyatida muhim ekan, u tomonidan samarali va adolatli soliq tizimi joriy qilinishi kerak. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerakligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 29-maqsadida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz soliq tizimida o'z yechimini kutayotgan masalalar juda ham ko'p. 2023-yil 18-avgust kuni Prezidentning tadbirkorlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassislari tomonidan ushbu uchrashuvda Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqining lingvistik kontent-tahlili o'tkazildi. Ushbu nutqda jami 3884 ta so'zdan foydalаниlib, shundan 35 tasini "soliq" so'zi tashkil etadi. Bu, bugungi kunda soliq bilan bog'liq masalalar juda dolzarbligini anglatadi.

**Metodologiya.** Ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan soliq milliy bazasining transmilliy korporatsiyalar faoliyati natijasida yemirilishi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar izlanishlar amalga oshirilgan. Shunday olimlardan biri Gabriel

Zukman hisoblanadi. U dastavval boylik va daromadlar tengsizligi borasidagi tadqiqotlari bilan mashhur bo'lgan. Qolaversa, uning soliq jannatlari (tax heavens) va transmilliy korporatsiyalar (multinational corporations) bo'yicha amalga oshirgan izlanishlarida, ularning soliq milliy bazalarining yemirilishida tutgan o'rirlari borasida tushunchalar bergan. Xususan, u o'zining "Xalqlarning milliy boyligi" asarida transmilliy korporatsiyalar va soliq jannati hududlarining faoliyatları natijasida ozchilik qo'lda ko'p iqtisodiy kuchning to'planishini yoritib berdi.[1]

G.Zukman o'z faoliyati davomida Ludvig Wier va Tomas Torslov bilan hamkorlikda transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan murakkab soliqdan qochish amaliyotlarini o'rganib, "Xalqlarning yetishmayotgan foydalari" asarida transmilliy korporatsiyalar sun'iy ravishda daromadlarni past soliqli yurisdiktsiyalarga yo'naltiradi. Bu korporatsiyalarning soliq yukini yengillashtirib, o'sha korporatsiyalar joylashgan mamlakatlarning milliy soliq bazalari, ya'ni soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi.[2]

Bundan tashqari, u "Global boylik tengsizligi" maqolasida yuqorida nazarda tutilgan korporatsiyalar tomonidan soliqlarni rejalshtirish qanday qilib soliq bazalarining yemirlishini tezlashtirishi, hukumatlar tomonidan davlat infratuzilmasini moliyalashtirish mushkullashib qolishi mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.[3]

Tomas Torslov korporativ tuzilmalarni o'rganib chiqadi, bu o'rganishlar natijasida foydani chegaralar orqali o'tkazish yo'llarini ochib beradi. Ushbu tadqiqotlar korporatsiyalar tomonidan soliqlarni optimallashtirish uchun qo'llaniladigan murakkab strategiyalar borasidagi tushunchalarni yanada boyitilishiga hissa qo'shdi.

Torslov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar foydani sun'iy yashirish va soliqdan qochish daromadlar tengsizligini qanday kuchaytirishi va mamlakatlarning soliq tizimlariga qiyinchiliklar tug'dirishi muhokama qilindi. Bu fikrlar bu sohadagi me'yoriy-huquqiy bazalarning shakllanishida o'z aksini topdi. Bu borada u soliqdan qochishga qarshi samarali kurashda xalqaro harakatlar zarurligini ta'kidlaydi.

**Muhokama va natijalar.** Ushbu holatda transmilliy korporatsiyalar tushunchasiga oydinlik kiritib olishimiz kerak. Xorijiy aktivlarga ega bo'lgan, operatsiyalarining kamida 25 foizini mamlakat tashqarisida, o'zi ro'yxatga

olingen chet mamlakatda amalga oshiradigan yirik korporatsiya Transmilliy korporatsiya sanaladi. Tashkiliy jihatdan bosh kompaniya asosiy kapitalining sho'ba korxonalar kapitalida qatnashuvi tamoyiliga asoslanadi. Shu o'rinda savol paydo bo'ladiki, Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining milliy soliq bazalariga qanday ta'siri mavjud degan savol paydo bo'lishi mumkin.[4]

Ushbu savolga javob topish uchun dastlab transmilliy korporatsiyalarining tashkiliy huquqiy shakli, ularning faoliyat mexanizmi va mohiyatidan kelib chiqib fikrlashimiz lozim. Ya'ni, Transmilliy korporatsiyalar asosiy faoliyatini o'zi joylashgan mamlakat hududida emas, balki o'ziga tegishli sho'balar joylashgan mamlakatlar hududida amalga oshiradi. Bundan strategik maqsadlar ko'zlangan bo'lib, avvalboshdan transmilliy korporasiyalar o'z sho'blarini soliq stavkalari past bo'lgan yoki 0 stavkali mamlakatlarga joylashtiradi. Ishlab chiqarishini ushbu mamlaktarda amalga oshirib, mahsulotni shu mamlakatdan realizatsiya qiladi. Natijada soliq to'lashdan qutulib qoladi. Olingen daromadni esa shtab kompaniya joylashgan mamlakatga olib kirib kam foizda devident solig'i to'lab, puldan foydalanishi mumkin. Yoki bo'lmasa, o'sha mamlakatning o'zida pulni yuvib olib, keyin asosiy kompaniyaga investitsiya sifatida kiritib, investitsiyaviy imtiyozlardan ham foydalanishi mumkin bo'ladi.

Bu esa mamlakatlarning milliy soliq bazalarining yemirilishiga sabab bo'lmoqda. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, hamma transmilliy kompaniyalar soliq yukini minimallashtirish maqsadida asosiy faoliyatini "Tax heaven" mamlakatlari yoki ofshor zonalarda amalga oshirib, bunday mamlakatlarda ko'p miqdorda boylik to'planadi. Bu boyliklar esa amalda milliy soliq bazalarining yemirilishi natijasida hosil bo'ladi.

Shu o'rinda soliq bazasi tushunchasiga oydinlik kiritib o'tilshi lozim. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 71-moddasiga muvofiq soliq bazasi soliq solish obyektining qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalarydi. Har bir soliq uchun soliq bazasi va uni aniqlash tartibi ushbu Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Soliq kodeksining 70-moddasiga ko'ra, Soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonunchilik soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi. Misol sifatida foyda solig'ini ko'rsatadigan bo'lsak, Soliq kodeksining 295-moddasiga yuzlanishimiz lozim. Unga ko'ra,[5] yuridik shaxslar uchun jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq

foyda solig'ining obyekti hisoblanadi. Soliq kodeksining 296-moddasiga ko'ra, ushbu Kodeksning 295-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo'lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Bunga ko'ra, daromad va xarjatning farqi foyda solig'ining obyekti, shu obyektning aniq qiymati esa soliq bazasi hisoblanadi. Transmilliy korporatsiyalar esa faoliyatini "Tax heaven" mamlakatlarida amalga oshiradi. Bu soliq masalasida o'z mamlakatlari bilan emas, o'sha mamlakatlar bilan hisoblashishini anglatadi. U mamlakatlarda esa soliq stavkasi 0 foiz. Bu esa korporatsiyaning soliqdan qutulib qolishini, soliqqa to'lashi lozim bo'lgan pulni xorijiy mamlakatlarda yuvib olishi imkoniyatini yaratadi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahliliy fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish o'rinniki, Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kamida  $\frac{1}{4}$  qismini xorijiy mamalakatlarda amalga oshiradi. Bu esa ularga soliqdan qutulib qolish, soliq yukini minimallashtirish yoki uni optimizatsiya qilish imkonini beradi. Bu faoliyat natijasida mamlakatlarning milliy soliq bazasi yemriladi. Bu esa ularning iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zucman, G. (2015). "Xalqlarning yashirin boyligi: soliq jannatlari balosi". Chikago universiteti matbuoti.
2. Torslov, T., Wier, L., & Zucman, G. (2018). "Xalqlarning etishmayotgan foydalari". NBER ishchi hujjati No 24701.
3. Zucman, G. (2019). "Global boylik tengsizligi". Iqtisodiyotning yillik sharhi, 11, 109-138.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Transmilliy\\_korporatsiya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Transmilliy_korporatsiya)
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodkesi. <https://lex.uz/docs/-4674902#-4675123>